

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



✉ www.innoworld.net

📞 +998 33 0178868



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tursunaliyeva Shohida Erkinjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang’ich ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Xorijiy tajribalardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari shuki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang’ich sinf o‘qituvchilari, shu maktablar biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalari mutaxassislari va ilmiy muassasalarning hamkorligiga asoslanib, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik ta’lim, boshlang’ich sinf, xorijiy tajriba, maktab, o‘qituvchi mahorati, ta’lim tizimi, hamkorlik, o‘qitish vositalari

Аннотация: специфика использования зарубежного опыта заключается в том, что общеобразовательные школы требуют эффективного использования передового опыта зарубежных стран на основе сотрудничества учителей начальных классов, специалистов высших педагогических учебных заведений, к которым эти школы прикреплены, и научных учреждений.

Ключевые слова: педагогическое образование, начальная школа, зарубежный опыт, школа, навыки учителя, система образования, сотрудничество, средства обучения

Annotation: the peculiarities of the use of Foreign experiences are that general secondary education schools require the most efficient use of advanced experiences of foreign countries, based on the cooperation of primary school teachers, specialists of higher pedagogical educational institutions to which these schools are attached, and scientific institutions.

Keywords: pedagogical education, primary class, foreign experience, school, teacher skills, educational system, cooperation, teaching tools

Hozirda Yurtimizda barcha sohalar qatori ta’lim tizmiga ham alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. “O’zbekiston-2030” strategiyasida “ta’lim tizimining mazmuni, o‘qitish vositalari va o‘zlashtirish jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish vazifasi qo‘yilgan”. Pedagoglar rivojlangan davlatlar ta’lim sistemasi chuqur o‘rganib, milliy mentalitetimizga mos tajriba va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etib kelishmoqda. Xususan, Finlandiya, Yaponiya, Fransiya, AQSH kabi mamlakatlar ta’lim shakli, strukturasi tahlil qilinib, o‘zaro hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Lekin ayrim mamlakatlarda o‘zini oqlagan va samara bergan modellarni o‘zga davlatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri qo’llab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimi chuqur o‘rganib chiqib, keyin o‘sha

davlatni milliy hamda O'zbekiston Respublikasiga xos bo'lgan xususiyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli ishlab chiqiladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan psixologlari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lif tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o'lkada ta'lif tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Xorijiy tajribalardan foydalanishning umumiyligi mexanizmi umumiyligi o'rta ta'lif maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, shu maktablar biriktirilgan oliy pedagogik ta'lif muassasalari mutaxassislari va ilmiy muassasalarning hamkorligiga asoslanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari xorijiy tajribalardan foydalanish amaliyotini amalga oshiradi, oliy pedagogik ta'lif muassasasi mutaxassislari ilmiy maslahatchi sifatida ishtirok etadi va ilmiy muassasalarning pedagogik olimlari esa mazkur jarayonining ekspertizasi vazifasini bajaradi. Buning natijasida xorijiy tajribalardan foydalanishning yaxlit tizimiga ega bo'linadi.

Tabiiyki, Yaponiya ta'lif tizimlarining yuksak parvozi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan. Bularni to'liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiq. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagagi kamchilikni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lif berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir. Turli ta'lif ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana shulardan yapon muallimi o'z kasbiga qo'shimcha ravishda yana nimalarni o'rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O'qituvchi qo'shiq aytishi, cholg'u asboblarida kuy chala olishi, notiqlik san'atini bilishi, yaxshi sportchi bo'lishi kerak.

Yaponiyaliklar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-sinfdan to 9-sinfgacha axloq tarbiyasi maktab faoliyatining zaruriy shartidir. O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan doimo birga bo'ladi. Boshlang'ich ta'lif jarayonida ko'p hollarda bitta o'qituvchi har bir sinfdagi barcha fanlarni o'qitadi. Bir toifadagi o'quvchilar soni odatda 40 tani tashkil qiladi. Biroq o'tmishda aholining tezkor

o'sishi tufayli bu raqam juda yuqori, ya'ni bir sinfga 50 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan. Ular o'qitadigan fanlar orasida yapon tili, matematika, ijtimoiy tadqiqotlar, musiqa, qo'l mehnati san'atlari, jismoniy tarbiya va uy iqtisodiyoti (oddiy pazandalik va tikuvchilik ko'nikmalarini o'rganish) kiradi. Boshlang'ich maktablarning soni ko'payib, ingliz tilini o'qitish boshlandi. Axborot texnologiyalari ta'limni yanada takomillashtirish uchun ishlatilgan va ko'pgina maktablar internetga kirish imkoniga ega.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kash etgan. Ibrat olsa, o'rganish arziydigai jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktablar fuqarolarning qanday millatga, mamlakat fuqaroligiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, majburiy va bepuldir. Boshlang'ich maktab bosqichiga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir. Fransiya ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning tabiatini, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o'rganish uchun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qish muddati 5 yil bo'lib, shu muddat ichidagi o'qish, asosan, 3 bosqichga bo'linadi:

– Tayyorlov bosqichi – 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa, mehnat qilishga o'rgatiladilar. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin ovqatlar juda arzonlashtirilgan narxlardadir.

Navbatdagi bosqich – elementar kurs bo'lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o'qituvchi ishlasa, elementar bosqichda ikki o'qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi.

Boshlang'ich maktabning 3-bosqichi – chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Dasturlarda o'quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. Masalan, O'qish I bosqichda o'quvchi:

1. Bosmadan chiqqan barcha nashrlarni (kitob, gazeta, jurnal, lug'at, e'lon, xat va hokazo) bir-biridan ajrata olish;
2. Xatni o'qish tamoyillarini (satr boshi, sarlavha, bob, betlarning ketma-ketligi) o'rganib olish;
3. Matn tarkibini (nutq, asosiy qism, xulosa) aniqlay olish;
4. Mustaqil mashg'ulotlarda kitoblardan, lug'atlardan foydalana olish.

II bosqichda:

1. O'qilgan mazmunini elementar bayon qilib bera olish;
2. Kitob mavzuida ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, nomini bilish, tasvirlab berish;
3. Sintetik tahlil qila bilish (urg'u, tinish belgilari).

III bosqichda:

1. Ifodali, tez va aniq, ovoz chiqarib hamda o'zicha o'qish, o'qish qoidalarini to'la shakllantirish, savollarga og'zaki va yozma ravishda javob qaytarish, mavzuli rasmlarni izohlab berish;
2. Matndagi noaniq so'zlarni aniqlash va uni tez tarjima qilishni bilish;
3. Sinf kutubxonasini tashkil etishda ishtirok etish;
4. Bayon qilingan axborotni tinglash va to'gri qabul qilish;
5. So'zlarni og'zaki va yozma fonetik tahlil qilib berish;
6. Kitobdan va lugatli adabiyotlardan mustaqil ishlash jarayonida to'la foydalana olish;
7. Soddalashtirilgan matnlar bilan ishlashni bilish.

Muhtasar qilib aytganda, O'zbekistonda ta'lif sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanish har tomonlamaa foydali va samarali jarayondir. Shuningdek, hozirgi kunda ba'zi ta'lif muassasalarida masofaviy ta'lif tizimiga o'tishni boshlandi. Bu tizim ham xorijiy tajribalarsiz amalga oshmaydi, chunki masofaviy ta'lif ancha yillar avval chet el ta'lifida o'z samarasini bergen. Hozirda ko'plab davlatlar qatori yurtimizda ham ta'lif tizimiga juda katta etibor qaratilgan. Malakali kadrlar taylorlash, ularni ish bilan taminlash yoshlarni o'qish va sportga jalb qilishga har qachongidan ham ko'proq e'tibor berilmoqda.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Djurayev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2008.
3. "Boshlang'ich ta'lif" jurnali, 2018-yil, 9-son.
4. "Boshlang'ich ta'lifda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T.G'afforova, Toshkent-2016.
5. "Boshlang'ich ta'lif" jurnali, 2017-yil, 7-son.